

O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-MA'NAVIY HAYOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIKNING TUTGAN O'RNI

Xabibullayeva Irodaxon

*Andijon davlat chet tillari instituti "Ijtimoiy gumanitar
fanlar, pedagogika va psixologiya" kafedra o'qituvchisi*

Murtozaqulova Nafosatxon Akmaljon qizi

"Tarjima nazariyasi va amaliyoti: rus tili"

yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotida diniy bag'rikenglikning o'rni va ahamiyati ko'rib chiqiladi.. Diniy bag'rikenglik jamiyatda tinchlik, farovonlik va barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Maqola, diniy bag'rikenglikning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyatini va uning bugungi kundagi dolzarbligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, YUNESKO, BMT, Deklaratsiya, ekstremizm, tolerantlik, Harakatlar strategiyasi, meditsina, ekologiya, iqtisod, siyosat, madaniyat, psixologiya, konferensiya

Ko'p millatli davlatlar har doim o'z hududida istiqomat qilayotgan turli xalq va millatlarning hamjihatligidan bevosita manfaatdor bo'ladilar. Zero, bu ko'p millatli davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Bunday davlatlar uchun millatlararo tinchlik va hamkorlik nafaqat siyosiy barqarorlik, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ham asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Millatlararo munosabatlarning ijobiy rivojlanishi, o'z navbatida, davlatning ichki siyosatini barqarorlashtiradi, jamiyatda tinchlikni saqlashga yordam beradi va milliy birlikni mustahkamlaydi. Ko'p millatli jamiyatlar o'rtasida diniy, madaniy va tilga oid farqlar bo'lishi tabiiydir. Ammo, agar bu farqlar hurmat va bag'rikenglik asosida hal qilinsa, bunday jamiyatlar o'zaro to'qnashuvlar va ziddiyatlardan saqlanib, birgalikda rivojlanishi mumkin.

Diniy bag'rikenglik tom ma'noda muayyan jamiyatda yashayotgan turli din va mazhabga e'tiqod qiluvchi xalqlar o'rtasida do'stona aloqa o'rnatish va hamjihatlikda yashab, jamiyat taraqqiyoti uchun bir tanu, bir jon bo'lishdir. Butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda, xalqaro terrorizm va aqidaparastlikka qarshi kurashda Birlashgan Millatlar Tashkiloti YUNESKO sho'basining o'rni va ahamiyati beqiyos. Aynan YUNESKO tashabbusi bilan BMT tomonidan 1995 yil – Bag'rikenglik Xalqaro yili deb e'lon qilindi va uni amaliy hayotga tadbiq etishda muvofiqlashtiruvchi tashkilot -

YUNESKO deb topildi. Ushbu yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi “Bag’rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”ni qabul qildi.²¹

Deklaratsiyada har yili 16-noyabrni Xalqaro bag’rikenglik kuni sifatida nishonlash, unda maxsus tadbirlar va dasturlar tashkil etish, o’quv muassasalari, hukumatlararo hamda nohukumat tashkilotlari, axborot vositalarining birgalikdagi sa’y-harakatlari bilan fuqarolar o’rtasida bag’rikenglik g’oyalarini tarqatishga taklif etdi.²²

“Bag’rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”da bag’rikenglik tushunchasiga aniqlik kiritilib, turli sharoitlarda davlat va shaxs munosabatlari, huquq va vazifalari belgilab berildi. Ushbu hujjatda a’zo davlatlarning bu boradagi majburiyatlari ko’rsatilgan, ya’ni millati, elati, jinsi, tili, dini va sog’ligidan qat’iy nazar inson mustaqilligi huquqlarini ta’minlash va takomillashtirish hamda bag’rikenglikka zid tamoyillarning oldini olishi kerak. Mazkur Deklaratsiya mamalakatimizda ijtimoiy, siyosiy va diniy bag’rikenglik qadriyatlarini mustahkamlash, diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish borasidagi dasturlarni tayyorlashda asos bo’lganligini qayd etishimiz lozim.

Jamiyat tarixi mohiyatiga ko’ra, kishilar o’rtasidagi munosabatlar tarixidan iborat. Kishilar o’rtasidagi munosabatlar esa ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy hamda ma’naviy kabi guruhlardan tashkil topgan. Tarixiy davrning har bir bosqichida tashkil topgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tuzumlar esa jamiyat a’zolari o’rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga yo’naltirilgandir. Har bir tarixiy davrda shaxsning jamiyatda tutgan o’rni, mavqei, erkinligi kabi muammolar mavjud bo’lgan. Ana shunday muammolardan biri tolerantlik muammosidir²³

Tolerantlik muammosini o’rganar ekanmiz, bu tushuncha juda keng doirani qamrab olishiga, hayotning meditsina, ekologiya, iqtisod, siyosat, madaniyat, psixologiya hamda ma’naviyat bilan o’zaro aloqador ekanligiga guvoh bo’ldik. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda va fan sohalarida “diniy bag’rikenglik” tushunchasi “millatlararo totuvlik” yoki “vijdon erkinligi” kabi tushunchalari bilan birgalikda iste’molda ekanligiga guvoh bo’lamiz. Ushbu tushunchalar ongimizda yakdil hodisa sifatida namoyon bo’lib, har qanday millat va elatlar, e’tiqod egalarini qo’llab-quvvatlaydi

Tarixdan ma’lumki, bag’rikenglik tushunchasi har bir davrda muhim sanalgan. Shu boisdan, istiqlolning dastlabki yillaridayoq diniy bag’rikenglik va millatlararo hamjihatlik masalasi davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Boisi, bu diyor ko’p millatli va ko’p dinli davlatdir. O’zbekiston qadimdan bag’rikenglik hamda hamjihatlik diyori bo’lib, bu zamin taraqqiyotida tolerantlikning o’rni muhimdir. Mustaqillikdan so’ng bag’rikenglik g’oyasi yangicha mazmun va ko’rinish kasb etdi. Demokratik islohotlarni amalga oshirish, ta’sirchan milliy siyosat yuritish uchun jamiyatning barcha qatlamlari, asosan yoshlar

²¹ YUNESKO Xalqaro me’yoriy hujjatlari.- T.: Adolat, 2004. - B. 89

²² YUNESKO Xalqaro me’yoriy hujjatlari.- T.: Adolat, 2004. - B. 95

²³ E.Karimov. O’zbek tolerantligining o’ziga xos xususiyatlari. -T.: “O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot nashriyoti”, 2006. -B.6

orasidagi millatlararo va dinlararo hamjihatlikni ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasiga aylandi.

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Biz jamiyatda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik muhitini mustahkamlash borasidagi ishlarni izchillik bilan davom ettiramiz..."²⁴

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o'zining 2017-yilning 7-fevral kungi farmoni bilan 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Harakatlar strategiyasi besh bosqichda amalga oshirilib, ularning har biri bo'yicha yil nomlanishidan kelib chiqqan holda alohida yillik davlat dasturini tasdiqlashni nazarda tutadi. Xususan, 2017-yil-Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili deb e'lon qilingan bo'lsa, 2018-yil - Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili deb e'lon qilindi²⁵

2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirish harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashga qaratilgan.²⁶

O'zbekistonning tashqi siyosatida qo'shni davlatlar bilan ahil qo'shnichilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. Shu bilan birga, O'zbekiston, Xitoy, Rossiya, AQSh va Yevropa davlatlari bilan samarali diplomatik munosabatlarni o'rnatish orqali xalqaro aloqalarini kengaytirdi. 2017-yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosatda o'zining mustaqil va nisbatan neytral pozitsiyasini saqlab qolish bilan birga, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan strategik tashabbuslarni ilgari surdi.

Mamlakatda millatlararo totuvlikni ta'minlash maqsadida diniy bag'rikenglikni rivojlantirish uchun bir qator ijtimoiy va siyosiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni mustahkamlash uchun davlat tomonidan diniy e'tiqodlarga hurmat va diniy erkinlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar qabul qilindi. 2017-yilda O'zbekiston Prezidenti tomonidan diniy tashkilotlarning faoliyatini yanada erkinlashtirish va ularni davlat siyosatiga qo'shish borasida qator ijtimoiy tashabbuslar

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Xalq so'zi. 2020. 25 yanvar

²⁵ Послание Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева Олий Мажлису Народное слово, 23-декабря 2017 года, - №258(6922).-С.1-2

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". "Xalq so'zi" gazetasi. 2017-yil 8-fevral, - №28(6722).-B.1.

ilgari surildi. Bu tashabbuslar jamiyatda turli diniy guruhlar o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, ularning o'zaro hurmatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston bag'rikenglik borasidagi ajdodlar sabog'ini izchillik bilan davom ettirdi. Shuning barobarida, boshqa din va boshqa til vakillariga juda katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Ajdodlarimiz olib borgan bag'rikenglik borasidagi faoliyatlarini ommalashtirish hamda bugungi Yangi O'zbekistonning diniy bag'rikenglik borasidagi islohotlarini o'rganish bugungi kun talabidir. Ushbu islohotlar nafaqat milliy birlikni mustahkamlash, balki har bir insonning diniy e'tiqodiga hurmat va erkinlik tamoyillariga asoslangan zamonaviy jamiyatni barpo etishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonning bugungi diniy bag'rikenglik siyosati, ayniqsa, turli diniy e'tiqodlarga ega bo'lgan insonlar o'rtasida tinchlik, o'zaro hurmat va adolatni ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, davlatning diniy siyosati ajdodlarimizning boy merosi asosida, diniy sabr-toqat va hamjihatlikni rivojlantirishga, shuningdek, milliy va diniy qadriyatlarimizni saqlashga qaratilgan.

Shu o'rinda, diniy bag'rikenglikning o'rni jamiyatni uyg'otish va unga yangi g'oyalarni olib kirish, turli e'tiqodlarga ega bo'lgan odamlarni birlashtirishda beqiyosdir. Ahamiyatli jihat shundaki, bu jarayon faqat davlat organlarining siyosatiga emas, balki jamiyatning har bir a'zosi va uning madaniy ongiga ham bog'liqdir. Aholining diniy bag'rikenglikni qabul qilishi va unga amal qilishi, mamlakatning barqarorligi va taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

Shu tariqa, ajdodlarimizdan olingan o'rnaklarni, bugungi islohotlar va amaliyotlarni o'rganish va ulardan samarali foydalanish, Yangi O'zbekistonda diniy bag'rikenglikni yanada mustahkamlashga imkon yaratadi. Diniy erkinlik va bag'rikenglik barcha fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash orqali jamiyatda tinchlik va farovonlikka erishish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O'zbekiston Respublikasi Preidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.- Xalq so'zi. 2020. 25 yanvar

2 Послание Президента Республики Узбекистан Шавката М ирзиева Олий Мажлису Народное слово,23-декабря 2017 года,-№258(6922).-С.1-2

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida". "Xalq so'zi" gazetasi.2017-yil 8-fevral,-№28(6722).-B.1.

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2017y. 14-fevraldagi PQ-2774-sonli Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Islom akademiyasini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017y. 15 dekabrda Qarori. .

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 2018y. 16-aprelda PF-5416sonli farmoni.

7. E.Karimov. O'zbek tolerantligining o'ziga xos xususiyatlari. –T.: "O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot nashriyoti", 2006. -.B.6

8. YUNESKO Xalqaro me'yoriy hujjatlari.- T.: Adolat, 2004. - B. 89

9 YUNESKO Xalqaro me'yoriy hujjatlari.- T.: Adolat, 2004. - B. 95

10. <https://constitution.uz/>

11. <https://lex.uz/>

